

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 320 189,5 mln. soʻm boʻlib oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 82,8 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 466 403,7 mln. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 81,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 853 785,9 mln. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 83,0 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 318 288,1 mln. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 81,5 %) ni tashkil etdi.

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA TOVAR AYLANMASI HAJMI HAMDA OʼSISH SURʼATLARI

	Jami (mln. soʻm)	Oʼtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. soʻm)	Oʼtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>2 320 189,5</b>	<b>82,8</b>	<b>466 403,7</b>	<b>81,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Urganch</b>	851 991,3	79,1	382 984,2	79,8
<b>Xiva</b>	72 691,5	76,1	7 801,7	75,6
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bogʻot</b>	129 953,8	77,9	8 851,3	90,5
<b>Gurlan</b>	205 869,8	118,2	2 812,5	77,5
<b>Qoʼshkoʼpir</b>	97 102,0	83,2	2 567,7	196,6
<b>Urganch</b>	189 890,1	78,3	21 589,2	130,4
<b>Hazorasp</b>	228 769,8	87,0	6 039,9	78,6
<b>Xonqa</b>	158 565,6	75,6	21 650,1	66,9
<b>Xiva</b>	45 077,4	78,7	415,6	80,2
<b>Shovot</b>	166 620,5	85,8	9 346,3	131,7
<b>Yangiariq</b>	111 771,8	89,9	2 081,6	2,2 m.
<b>Yangibozor</b>	61 885,9	75,9	263,6	122,4

Dastlabki maʼlumotlar\*


ENG YUQORI ULUSH

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri 36,7 % ulush bilan 851 991,3 mln. soʻmni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Xiva tumani 1,9 % ulush bilan 45 077,4 mln. soʻmni tashkil etdi.


### ENG YUQORI ULUSH



### ENG QUYI ULUSH




### HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mlrd. soʻm)



2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining quyi surʼatlari kuzatildi. Yuqori oʼsish surʼati faqat Gurlan tumanida qayd etilib, 118,2 % ni tashkil qildi.


### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASINING O'SISH SUR'ATLARI, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,8 % ni va 466 403,7 mln. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 20,1 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 853 785,9 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 83,0 % ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,9 % ga teng kelmoqda.

### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI, % da



### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ULUSHI, % da




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari.

Yirik korxonalar.


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,6 %), Xiva (99,1 %), Gurlan (98,6 %) va Yangiariq (98,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 20,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (45,0 %), Xonqa tumani (13,7 %), Urganch tumanida (11,4 %) va Xiva shahrida (10,7 %) kuzatilgan.

### KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ENG YUQORI ULUSHI



### YIRIK KORXONALARNING ENG YUQORI ULUSHI




**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI VA YIRIK  
KORXONALARING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI HAJMI**

	Yirik korxonalar (mln so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mln so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>466 403,7</b>	<b>81,8</b>	<b>1 853 785,9</b>	<b>83,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Urganch</b>	382 984,2	79,8	469 007,1	78,6
<b>Xiva</b>	7 801,7	75,6	64 889,8	76,2
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bog'ot</b>	8 851,3	90,5	121 102,5	77,1
<b>Gurlan</b>	2 812,5	77,5	203 057,2	119,1
<b>Qo'shko'pir</b>	2 567,7	196,6	94 534,3	82,0
<b>Urganch</b>	21 589,2	130,4	168 300,9	74,4
<b>Hazorasp</b>	6 039,9	78,6	222 729,9	87,2
<b>Xonqa</b>	21 650,1	66,9	136 915,6	77,1
<b>Xiva</b>	415,6	80,2	44 661,8	78,7
<b>Shovot</b>	9 346,3	131,7	157 274,2	84,1
<b>Yangiariq</b>	2 081,6	2,2 m.	109 690,3	88,9
<b>Yangibozor</b>	263,6	122,4	61 622,3	75,8

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 853 785,9 mln. so'm bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 83,0 % ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,9 %.

**HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
JAMI CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da**



### AHOLI JON BOSHLIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

	Ming. so'm:	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>1 241,2</b>	<b>81,4</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	5 916,6	78,0
Xiva	787,6	75,0
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	792,4	76,5
Gurlan	1 392,0	116,5
Qo'shko'pir	565,2	81,8
Urganch	959,5	76,8
Hazorasp	921,7	85,5
Xonqa	853,4	74,4
Xiva	310,7	77,4
Shovot	983,0	84,4
Yangiariq	966,0	88,5
Yangibozor	710,5	74,7

2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1 241,2 ming. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 81,4 % ni tashkil qildi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning Gurlan tumanida o'sish sur'ati 116,5 % ni ya'ni 1 392,0 ming so'mni tashkil qildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xiva (310,7 ming. so'm), Qo'shko'pir (565,2 ming. so'm) va Yangibozor (710,5 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan.

### **UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

	Jami (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da:
<b>Viloyat</b>	<b>32 324,8</b>	<b>74,8</b>	<b>2 907,4</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>29 417,4</b>	<b>70,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	12 787,9	72,5	997,3	85,8	11 790,6	71,6
<b>Xiva</b>	2 008,0	69,5	-	-	2 008,0	69,5
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog'ot</b>	1 072,5	71,2	-	-	1 072,5	71,2
<b>Gurlan</b>	931,0	68,8	-	-	931,0	68,8
<b>Qo'shko'pir</b>	652,8	74,2	-	-	652,8	74,2
<b>Urganch</b>	6 411,4	67,9	206,8	88,7	6 204,7	67,4
<b>Hazorasp</b>	1 688,4	70,7	-	-	1 688,4	70,7
<b>Xonqa</b>	1 311,0	71,6	-	-	1 311,0	71,6
<b>Xiva</b>	1 347,2	69,6	-	-	1 347,2	69,6
<b>Shovot</b>	2 885,3	176,9	1703,3	-	1 182,0	72,5
<b>Yangiariq</b>	521,9	70,0	-	-	521,9	70,0
<b>Yangibozor</b>	707,3	73,0	-	-	707,3	73,0

2020-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida umumiy ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 % ni tashkil etib, 32 324,8 mln. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 74,8 % bo'lib, bunda jami umumiy ovqatlanish aylanmasining 98,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel)

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 737 465,7 mln. so'mni va 2019-yilning shu davriga nisbatan 92,8 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik biznes subyektlari hajmi 2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra 479 944,1 mln. so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91,0 % ni tashkil qilgan. Ushbu sektorining umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,1 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bog'ot va Shovot tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan.

### YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 34,9 % ni tashkil etib, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Hazarasp tumanida (80,2 %) va Urganch tumanida (51,2 %) kuzatildi.

### ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami (mln. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>737 465,7</b>	<b>92,8</b>	<b>257 521,7</b>	<b>96,3</b>	<b>479 944,1</b>	<b>91,0</b>
<b>shaharlar:</b>						
<b>Urganch</b>	273 315,3	107,6	85442,4	173,5	187 872,9	91,8
<b>Xiva</b>	33 412,6	89,8	238,3	-	33 174,4	90,0
<b>tumanlar:</b>						
<b>Bog'ot</b>	12 634,8	91,9	4,0	-	12 630,8	91,9
<b>Gurlan</b>	12 985,2	94,1	43,7	5,2 m.	12 941,5	93,8
<b>Qo'shko'pir</b>	2 310,0	90,0	13,1	97,8	2 296,8	89,9
<b>Urganch</b>	216 800,8	65,0	110959,8	51,2	105 841,0	90,6
<b>Hazorasp</b>	72 787,7	4,6 m.	58381,4	1241,2 m.	14 406,4	91,2
<b>Xonqa</b>	40 780,4	93,3	2352,3	3,0 m.	38 428,1	89,6
<b>Xiva</b>	17 518,9	90,8	52,1	-	17 466,8	90,6
<b>Shovot</b>	19 122,7	90,0	6,8	-	19 115,9	90,3
<b>Yangiariq</b>	15 063,2	91,3	14,6	2,0 m.	15 048,7	91,2
<b>Yangibozor</b>	20 734,0	88,8	13,3	-	20 720,7	88,7

## HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI, % da



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Hazorasp tumanida (4,6 marta), Urganch shahri (107,6 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi tel.: (62) 224-65-09